



## KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA RIVOJLANTIRISH MODELI

Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi

Termiz davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish haqida yozilgan. Muloqot jarayonida o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchi shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.

**Kalit so'z:** boshlang'ich sinf, o'qituvchi, kommunikativ, ko'nikma, rivojlantirish, fikr, shaxs.

Odatda muloqot shaxslar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojini aks ettiradi. Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida bilish yoki baholash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo'luvchi o'zaro ta'sirdir[1]. U birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlashni ta'minlaydi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatni hisobga olinadi[13]. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladi[2]. Muloqotning yana bir jihatni munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati axborotlarni faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayriboshlash namoyon bo'ladi.

Muloqotchanlik hissiy tabiatga ega bo'lib, ular kommunikativ va altruistik hislardir. Kommunikativ hislarga fikr almashish, hayajonlanish, simpatiya (yoqtirish) his qilish, muloqotda bo'layotgan hamroxni hurmat qilish kabilalar kiradi[3]. Altruistik hislar esa kishilarga quvonch keltirishni xohlash, boshqalar quvonchidan xursand bo'lish, hamdardlik bildirish va shu kabilardan iborat.

Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish metodlari – mutaxassis sifatida bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarda o'z fikri, his-tuyg'ulari, hissiyotlarini to'g'ri ifodalashga, o'quvchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinishiga, suhbat jarayonida o'z qarashlarini muvaffaqiyatli himoya qilinishiga erishish imkonini beradigan layoqatlarini yanada mustahkamlash va takomillashtirish[4]. Kommunikativ qobiliyati - bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik takting mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan



muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi[5]. Bunda, ayniqsa, pedagogning o‘quvchilar jamoasi bilan o‘zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishga, uning samarali bo‘lishiga intiladi. Muloqot jarayonida o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi[14]. O‘quvchi shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo‘lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini ta‘minlaydi[7]. Zero, bu jarayonda pedagogik o‘quvchi shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi. Muloqot jarayonidagi axborot almashinushi ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma’lumotlar almashishini ta‘minlaydi[12]. Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug‘iladi[6].

Kommunikativ qobiliyatlar, so‘z, fikr - tuyg‘u orqali munosabat, o‘zaro fikr almashuv, fahm-idrokli bo‘lish, turli qobiliyat ko‘rinishlari, qirralari iqtidorligiga ega bo‘lish, dinamizm (harakatchang), faol, olg‘a siljish; emosional (his-tuyg‘u jo‘shqin), qat‘iyatlik,qunt, sabot - chidamli; kelajakka ishonch (kelajakni qo‘ra bilish), e’tiborli, nufuzli bo‘lish (o‘z ta’sirchanligi bilan mahliyo, maftun eta bilish)[11], Pedagogik texnika o‘z-o‘zini boshqara olish, boshqalar bilan aloqa - munosabat o‘rnata olish kabi malakalariga ega bo‘lish ta‘lim-tarbiya samaradorligini ta‘minlashni qafolatlaydi[8].

Maxsus pedagoglik qobiliyatları ichida shundaylari ham borki, ularni aniq o‘qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatiga mansub deb ajratib bo‘lmaydi. Negaki, ular har ikkalasi uchun ham bir hilda zarurdir. Bu narsa - pedagogik muloqot, muomaladir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday yozgan edi. "Pedagoglik ishi o‘z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi - o‘qituvchi shaxsining o‘quvchi shaxsiga t‘siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o‘quvchilar bilan uzoq va samarali ta’sir o‘tkazishni tashkil etishidir". Odatda bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyatini bilan bog‘laydilar. Kasbiy pedagoglik muloqotiga ega bo‘lish - shaxslararo muloqotga tegishli bo‘lgan pedagog shaxsining muhim tomonidir[9].

Kommunikativ ko‘nikmalar – shaxslararo munosabatlarda shaxsning o‘z fikri, his-tuyg‘ulari, hissiyotlari to‘g‘ri ifodalashga imkon beradigan qobiliyat, odat, ko‘nikma va malakalari. Ular suhbatdosh tomonidan uni to‘g‘ri tushunilishini, to‘g‘ri qabul qilinishini ta‘minlaydi[10].

Shunday qilib, pedagogik muloqot jarayoni beshta bosqichda kechadi. Har bir o‘qituvchi bu bosqichlar mohiyatidan yaxshi xabardor bo‘lishi lozim. Muloqotning bir necha turlari farqlanadi, shuningdek, u bir necha shakllarda tashkil etiladi. Qolaversa, muloqotning samarali bo‘lishi uchun bir qator metodlar qo’llaniladi. Pedagogik muloqot pedagogik



ta'sirning eng muhim sifati bo'lib, uning yordamida o'qituvchilar o'quvchilarga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi deyishimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR:

1 Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

Erkaboeva N. Pedagogik mahorat / O'quv qo'llanma. – Qo'qon: Qo'qon DPI nashriyoti, 2020.

Abdukarimovich, Y. T. (2023, January). SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR THE FAMILY. In Conference Zone (pp. 147-149).

Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich. (2023). OILADA BOLALARNI TO'G'RI TARBIYALASHNING ASOSIY SHARTLARI VA MUAMMOLARI. SCHOLAR, 1(1), 139–143.

Abdukarimovich, Y. T., Isokovich, U. F., & Melikmurodovich, S. U. B. (2023). FORMATION OF A RELATIONSHIP OF RESPONSIBILITY TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE.

Abdukarimovich, Y. T. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA MA 'NAVIY-AXLOQIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH. Uzbek Scholar Journal, 11, 114-116.

Abdukarimovich, Y. T., Nurmamatovich, K. A., & Kakhramonova, S. S. (2022). Crisis of the Age of Maturity, The Formation of The Image of "I". Global Scientific Review, 9, 21-25.

Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review, 9, 1-4.

Isakovich, U. F., & Abdukarimovich, Y. T. (2022). THE PECULIARITIES OF THE FORMATION OF SPIRITUAL EDUCATION IN CHILDREN IN THE FAMILY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 1-4.

Yuldashev, T. (2022, February). Measures to eliminate or prevent the manifestation of personality aggression. In Conference Zone (pp. 227-229).

Abdukarimovich, Y. T., & Melikboboyevich, S. U. (2022). FORMING A RESPONSIBLE ATTITUDE TO THE FAMILY IN YOUNG PEOPLE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 653-657.



Abdukarimovich, Y. T. (2021). Pedagogical direction cooperation between family and educational organization.

Yo'Ldoshev, T. (2021). KELAJAK AVLODNI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2(NUU Conference 1), 333-336.

Йулдошев, Т. А. (2018). ЦЕННОСТНЫЕ ОРИЕНТАЦИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 85.

